

**TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR -
O'QUV MASHG'ULOTLARNI MODULLI TEXNOLOGIYA
ASOSIDA LOYIHALASHNING ASOSI SIFATIDA**

Qiziltepa tumani 38 – maktab texnologiya fan o'qituvchisi

Po'latova Sh.S

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'lim jarayonida ishlatiladigan innovatsion texnologiya va metodlar, modules texnologiya asosida loyihalash haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, innovatsion metodlar, bilim, ko'nikma, muammo, axborot, texnologiya.

XXI asr boshlarida barcha rivojlangan mamlakatlarning ilmiy siyosati fanning o'z potensialini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning yutuqlarini samarali amalga oshirishni ta'min etadigan jarayonlarga ham qaratilmoqda. Jumladan, innovatsiyalarni yaratish va tarqatishning, puxta ishlab chiqilgan mexanizmi jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy quroliga aylanmoqda. Jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi muammolarni qo'yimoqdaki, bularga nimani o'qitish va qanday o'qitish muammosi dolzarb qilib qo'yilmoqda. O'qitish asrlar davomida ma'lum bilimlar majmuini egallashdan iborat bo'lib kelgan bo'lsa, hozirgi paytda bilimlarning bir avlod hayoti davomida eskirib qolayotganligini kuzatish mumkin. Bunda, bilimlar hajmi, hatto ayrim ixtisosliklar doirasida ham shunchalik ulkanki, mavjud o'qitish metodikalari asosida uni o'zlashtirish amalda mumkin bo'lmay qoldi. Bularning hammasi ta'lim oldida yangi axborotni mustaqil qabul qilish, baholash va tegishli qarorlarni qabul qilishga qodir bo'lgan ijodkor shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. XX asrda ro'y bergan ko'pchilik falokatlarning sababi texnosferadagi texnologik mashina va jihozlarida emas, balki mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetenlikning

yetishmasligidadir. Bunday muammolarni hal etishda ta'lim tizimi ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi [60]. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun ta'limga jumladan, texnologiya fanlarini o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash hozirgi kunning talabi hisblanadi. Bunda mazkur fanlarning mazmuni asosiy o'rinni egallaydi hamda unga asos bo'ladigan ushbu fanlarning didaktik maqsadlarini haminobatga olish lozim bo'ladi, shu jumladan:

- talabalarning pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligini shakllantirish;
- mutaxassislik malaka talablari asosida talabalarning kasb-hunar madaniyati, ijodiy va ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish;
- texnologiya fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon beradigan innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, avvalo, mavjud innovatsion texnologiyalarni tahlil etish, o'qitiladigan fanlarning mazmunini e'tiborga olgan holda, ularni qo'llash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish va ularning samaradorligini aniqlash pedagogikada muhim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mazkur fan o'qituvchilaridan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Pedagogik kadrlarni, xususan, matematika turkumiga kiruvchi fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakllantirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash quyidagi didaktik maqsadlarni ko'zda tutadi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirish, uning Davlat ta'lim standarti bilan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash samaradorligini oshirish;

- talabalarning kasbiy-pedagogik, metodik tayyorgarligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash;

- talabalarning innovatsion texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash va ta'lim-tarbiya jarayoni subyektiga aylantirish orqali innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga zamin yaratish.

Yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish talabalarni kasbiy tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, matematika turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa talabalarning kasbiy mahoratlarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ularni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ustuvor maqsad qilib belgilashni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar sharoitida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kasbiy-pedagogik tayyorgarlik muhim o'rin tutadi. Uning tarkibiy qismlari ilmiy-nazariy va pedagogik-psixologik tayyorgarlikdan iborat. Shu sababli innovatsion texnologiyalar sharoitida talabaning bilim, ko'nikma va malakalari tarkibiy qismlariga muayyan o'zgartirishlar kiritish, uning mazmunini yangilash, mazkur tayyorgarlikni amalga oshirishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish, matematika turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammolaridan biri sanaladi. Tadqiq etilayotgan muammo mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan ilmiy manbalarni o'rganish talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga ko'mak beradigan metodik adabiyotlarini takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi. Bu sohadagi manbalar tadqiq etilayotgan muammoning muayyan jihatlarini yoritishga xizmat qilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida innovatsion ta'limni rivojlantirish va takomillashtirish sohasida B.A.Abdullayev [2], Л.Н.Ващенко [12], О.В.Иншаков [25], Е.Лебедева [33], tadqiqotlar olib

borishgan, pedagogika sohasida innovatsion model va metodlarni qo'llash ishlariga O.M.Железнякова [22], М.В.Кларин [28], К.Б.Колбаев [29] kabilar o'z hissalarini qo'shgan;

Innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini loyihalash va uni amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi:

- innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ilmiy-amaliy jihatdan yondashish;
- texnologiya fani o'qituvchilarining e'tiborini innovatsion ta'lim texnologiyalari, usullari va shakllaridan foydalanish masalalarigajalb etish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida texnologiya fani o'qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish tizimini yaratish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonini faollashtirish uchun ularni rag'batlantirish yo'llarini ishlab chiqish;
- talabalarni ko'proq innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari sharoitida talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi innovatsion pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida ishlab chiqilgan ta'lim jarayonining loyihalari hamda uni amaliyotda qo'llashda foydalaniladigan zamonaviy va interaktiv usullar asosida amalga oshiriladi.

Innovatsion pedagog texnologiya to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi, yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ilg'or tajribalarni targ'ibot qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarning natijalarini baholash bo'yicha zaruriy bilim va malakalarga ega bo'lishi zarur. Shundagina, kelajak uchun yetuk, bilimli, fidoiy, mahoratli texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlyanov A., Javlonov Sh.S., Abdalova S., Yusupova L. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi. T. 2010. -117 b.
2. Maxamov X.T., Bolliyev K.E., Qurbonov B.E. “Texnologiya ta’limi praktikumi” amaliy ishlar (uslubiy qo’llanma). Qarshi-2021 y.
3. G‘afforova T. va boshqalar. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari. - Qarshi.: Nasaf. 2003. -112 b.
4. Якубов С.Х., Холмуродов Д.С. Совершенствование технологической подготовки современного спетсиалиста. Моделирование процесса формирования учебно-познавательной деятельности учащихся профессионального колледжа: монография / С. Х. Якубов, Д. С. Холмуродов. - Deutschland, Palmarium Academic Publishing, Saarbrucken, 2017. - 90 p.
5. Якубов С.Х., Якубова Л.С. Методическая система инновационной подготовки учителей технологии при переподавании общетехнических дисциплин//Мир образование-образование в мире. Научно-методический журнал, 2022. №1(85).- С 83-92.